
Bosh prokuror o'rinbosari "kichik sanoat zonasi"dagi tadbirkorlar bilan uchrashdi

Xabar berib o'tganimizdek, Rishton tumanida bo'lgan Bosh prokuror o'rinbosari Sh.A.Aminov rahbarligida tuman prokuraturasi binosida kommunal soha vakillari ishtirokida elektr energiyasi hamda tabiiy gazdan oqilona foydalanish, energiya iste'molidagi tejamkorlik masalalariga bag'ishlangan tezkor yig'ilish o'tkazilib, sohada mas'ul rahbarlarga zarur topshiriqlar berilgandi.Shundan keyin Bosh prokuror o'rinbosari Navbahor mahalla fuqarolar yig'inida joylashgan "kichik sanoat zonasi"dagi ishlar bilan tanishdi. So'nggi paytlarda tumanimiz aholisini biznesga jalb qilish va ijtimoiy himoya qilishda yangi "o'sish nuqtalari"ni aniqlash hamda drayver sohalarda oilaviy tadbirkorlik va xizmat ko'rsatish loyixalarini amalga oshirishga e'tibor qaratilmoqda. Xususan, "Navbahor" MFY hududidagi kichik sanoat zonasida tashkil etilgan sanoat korxonalarini faoliyati yo'lga qo'yilgan bo'lib, bugungi kunda yuzdan ortiq korxonalar faoliyat yuritmoqda. Bosh prokuror o'rinbosari ushbu kichik sanoat zonasida bo'lib, tadbirkorlar bilan ham uchrashdi.Ularning murojaatlarini tingladi. Mahsulotlarni yana sifatini oshirish va eksportni ko'paytirish borasida tavsiyalar berdi. Shuningdek tadbirkorlarning takliflarni ham tingladi.

2024-07-10 08:31:28